

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси
Давлат тест маркази

АҲБОРОННОМА

2018

№ 3

Тошкент

«АХБОРОТНОМА»

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар
Махкамаси хузуридаги Давлат тест
маркази
илмий-услубий журнали.
Бир йилда 4 марта чиқади.
Ўзбекистон Матбуот ва ахборот
агентлигига 2007 йил 19 апрелда
қайта рўйхатдан ўтказилган.
Гувоҳнома № 0247

Таъсисчи:

Давлат тест маркази

Таҳририят ҳайъати:

Закирова Махпиза
(бош мухаррир)
Гулямов Суръат
Муҳаммадиев Муродулла
Каримов Маджит
Содиков Қосимжон
Ибрагимов Абдугофур
Бобоев Орзикул
(бош мухаррир ўринбосари)
Қаюмов Абдухалил
Мирвалиев Зоид
(масъул котиб)

Босишга руҳсат этилди: 25.09.2018

Шартли босма табоги: 6,0
Нашриёт ҳисоб табоги: 5,8
Адади 100. Буюртма № 3-А-18

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар
Махкамаси хузуридаги Давлат тест
маркази босмахонасида чоп этилди.

Нашрга тайёрловчилар:
М. Закирова, З.Мирвалиев

Компьютерда сахифаловчи:
О. Бобоев

Баҳоси келишилган нархда.

Таҳририят манзили:

100202, Тошкент шаҳри,
Боғишамол кўчаси, 12- уй.

© «Ахборотнома»

МУНДАРИЖА

| | |
|---|----|
| Кириш..... | 3 |
| А. Баратов. Таълим сифатини баҳолашда асосий педагогик ўлчов воситаси бўлган тест топшириқларининг назарий асослари ҳақида..... | 4 |
| З. Мирвалиев. Педагогик ўлчовларда тест топшириғи турларидан фойдаланиш бўйича услугубий кўрсатма..... | 9 |
| Ж. Искандаров, Н. Нурмуҳамедова. 2018/2019 ўқув йилида олий таълим муассасаларининг бакалавриат таълим йўналишларига талабаликка қабул қилиш учун ўтказилган тест синовлари натижалари таҳлили | 30 |

КИРИШ

“Ахборотнома” илмий-услубий журналининг мазкур сонида таълим сифатини баҳолашда асосий педагогик ўлчов воситаси бўлган тест топшириқлари ва уларни тузишнинг назарий асосларига бағишлиланган мақола берилган. Унда тест топшириқларини тузишга қўйиладиган асосий талаблар, амал қилинадиган умумий қоидалар, тестлардан фойдаланишнинг қулайликлари ва камчиликлари ҳақида маълумотлар келтирилган.

Ушбу сонда педагогик ўлчовларда тест топшириғи турларидан фойдаланиш бўйича услугбий кўрсатма берилган. Кўрсатмада педагогик ўлчовларда қўлланиладиган тест топшириғи турлари бўйича маълумотлар баён қилинган. Келтирилган маълумотлар ривожланган хорижий давлатларнинг педагогик ўлчовлар соҳасидаги илмий-услубий янгиликларига ва Давлат тест марказининг кўп йиллик амалий тажрибаларига асосланиб берилган. Тест топшириғи турлари батафсил, мисоллар билан келтирилган.

Шунингдек, журналнинг ушбу сонида 2018/2019 ўкув йилида бакалавриат таълим йўналишларига талабаликка қабул қилиш учун ўтказилган тест синовлари ва унинг натижалари ҳақидаги таҳлилий маълумотлар берилган. Тест натижаларининг макрокўрсаткичлари келтирилган. Бунда олий таълим муассасаларининг бакалавриат таълим йўналишларига талабаликка қабул учун ўтказилган тест синовларида қатнашган абитуриентлар сони, танлов ва ўртacha баллар ҳақида маълумотлар ҳамда талабаликка тавсия этилган абитетуриентларнинг вилоятлар ва туманлар кесимида, билим ва таълим соҳалари бўйича тақсимоти берилган.

Журналнинг ушбу сони таълим соҳасида фаолият олиб бораётган барча мутахассислар, педагоглар, шунингдек, абитетуриентлар, ота-оналар ҳамда кенг жамоатчилик учун мўлжалланган.

ТАЪЛИМ СИФАТИНИ БАҲОЛАШДА АСОСИЙ ПЕДАГОГИК ЎЛЧОВ ВОСИТАСИ БЎЛГАН ТЕСТ ТОПШИРИҚЛАРИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ ХАҚИДА

А. А. Баратов
ДТМ бош мутахассиси

Одатда, ўлчов асбоблари икки таркибий қисмдан иборат бўлади [1]. Улардан бири – ўлчов асбобининг ўзи бўлиб, педагогик ўлчовларда ўлчов асбоби роли қўп ҳолларда тестга берилади. Энг умумлашган ҳолда тест деганда, стандартлаштирилган назорат топшириқларининг тўплами тушунилади ва у керакли статистик хусусиятларга эга бўлган, концептуал танланган ўзгарувчан ўлчовнинг ишончли ҳамда валидли баҳосини таъминлаб беради. Анъанавий баҳолаш воситаларида бўлмаган ҳол: тестнинг таърифида унинг сифатига талаблар қўйилади.

Мутахассислар билан биргаликда ҳеч қачон тест тузишда иштирок этмаган ва педагогик ўлчовлар назарияси бўйича маҳсус тайёргарлиги бўлмаган қўплаб ўқитувчилар, асосланмаган ҳолда, тестни назорат топшириқлари тўплами билан адаштирадилар, топшириқлар жавобини топиш шаклига айлантиришнинг ўзи етарли, дарҳол педагогик тест ҳосил бўлади, деб ўйлайдилар. Педагогик тестлар ҳақида бундай юзаки ва нотўғри тасаввур ҳосил қилинишига, талабаларни танлашда фақат тестни қўллаш жараёнида ҳамда қайта ишлаш давомида аниқланадиган ва тест ўтказишнинг эмпирик натижалари таҳлилида намоён бўладиган тест топшириқларининг табиатан латент (бевосита кузатиш имкониятлари йўқ, яширин) хусусиятлари имкон беради. Бошқача қилиб айтганда, талабалар вакилларини танлашда, бу тест ёки оддий назорат топшириқлари тўплами эканлигини топшириқларнинг апробацияси натижалари таҳлил қилингандан кейин билиш мумкин.

Таҳлилдан, апробация натижаларини топшириқларнинг статистик хусусиятларини баҳолаш имконини берувчи, педагогик ўлчов назарияси аппарати асосида маҳсус қайта ишлаш, шунингдек, уларни педагогик ўлчов назарияси талаблари билан ўзаро боғлаш ва топшириқлар базасидан педагогик тестни олишда тавсифларини тузатиш усувларини белгилаш кутилмоқда. Ўз-ўзидан кўринадики, топшириқларнинг шакли ҳеч қандай аҳамиятта эга эмас. Аммо биринчи қарашда тест топшириқлари анъанавий назорат туридан ҳеч қандай фарқ қиласлиги мумкин ва тайёр жавобларга эга бўлмайди. Четдан қараганда тестнинг зарур, аммо етарли бўлмаган хусусияти фақатгина тест топшириқларининг сони бўлиши мумкин ва у 25 тадан кам бўлмаслиги лозим.

Шундай қилиб, тестнинг одатдаги оддий топшириқдан фарқи савол ва жавобларни тақдим этиш шаклида эмас, балки уни яратиш ҳамда қўллаш жараёнида педагогик ўлчовлар назариясига асосланганлигидадир, бу эса тестдан фойдаланмаган ҳолларда учрамайдиган бир қанча қулайликларга олиб келади. Хусусан, педагогик ўлчовлар назарияси аппарати орқали қуидагиларни амалга ошириш мумкин бўлади:

- тестдаги топшириқларнинг қўплиги туфайли, назорат материалларининг фан мазмунини тўлиқ қамраб олиш имкониятини ошириш (25 тадан кам эмас);
- талабаларнинг тайёргарлик даражасини баҳолашнинг ишончлилик (холислик) даражасини таҳлил қилиш, ўлчов хатолиги қийматини аниқлаш (ўлчов натижаларининг ишончлилиги);
- олинган назорат натижаларининг қўйилган мақсадга мослик даражасини ўлчов натижаларининг валидлигини баҳолаш йўли билан аниқлаб, талабаларнинг тайёргарлик даражаси баҳосини асослаш ва таҳлил қилиш;
- экспертларнинг баҳолов натижаларидан юқори ишончлилиги билан ажралиб турган топшириқларнинг қийинлик даражасини статистик баҳолаш йўли билан олиш;
- тест тузишда тест топшириқлари қийинлик даражаси, валидлиги ва тизимни шакллантирувчи хусусиятлари (корреляцияни баҳолаш)ни оптималлаштириш орқали назорат самарадорлигини ошириш;
- бажарилган тест натижаларини қиёсий таҳлил қилишда меъёрлар ва стандартлаштиришни жорий этиш, тест натижаларини стандарт шкалада тақдим этиш орқали талабаларнинг баҳоларини юқори даражада таққослаш имконияти билан таъминлаш.

Гап тест топшириқлари тўғрисида кетаётганини ҳисобга олиб, тест топшириқларининг шакллари ва умуман тест топшириқларини тузишга қўйиладиган асосий талаблар билан танишамиз [2,3].

Умум қабул қилинган таснифга кўра, тест топшириқларининг қуйидаги асосий шаклларини ажратиб кўрсатиш мумкин. Улар:

- тест топширувчилар берилган муқобил жавоблардан тўғрисини танлайдиган **ёпиқ шаклдаги топшириқлар**;
- тест топширувчидан тўғри жавобни ўзи шакллантириши талаб этиладиган **очиқ шаклдаги топшириқлар**;
- бажарилиши икки тўплам элементлари ўртасидаги мувофиқликни аниқлашдан иборат бўлган **мос келишини аниқлашга** доир топшириқлар;
- жараён ва ҳодисанинг тўғри кетма-кетлигини аниқлашдан иборат бўладиган **тўғри кетма-кетликни аниқлашга** доир топшириқлар.

Тест топшириқларини тузишда амал қилинадиган умумий қоидалар:

ҳар бир топшириқ ўз тартиб рақамига эга бўлиши;

бир хил шаклдаги тест топшириқларини шакллантиришда стандарт кўрсатмалар орқали амалга оширилиши;

ҳар бир топшириқ ўзининг этalon тўғри жавобига эга бўлиши;

топшириқнинг барча элементлари танланган шаклда аниқ муайян жойда бўлиши;

ҳар бир топшириқ учун баҳолаш қоидаси ишлаб чиқилиши;

топшириқ берилиш шакли жиҳатдан қисқа бўлиши ва бажарилишига кам вақт сарфланиши керак.

Ёпиқ шаклдаги топшириқларининг учта шакли мавжуд:

– битта тўғри жавобни топиш лозим бўлган топшириқ (бир неча муқобил жавоблар таклиф этилади, лекин битта жавоб тўғри бўлади);

– энг тўғри бўлган жавобни топиш топшириги (бир неча муқобил жавоблар таклиф этилади, булар ичида ҳар хил даражада тўғри, нотўғри жавоблар бўлади. Тест топширувчидан энг тўғри бўлган жавобни топиш талаб этилади);

– барча тўғри жавобларни топиш зарур бўладиган топшириқлар (бир неча муқобил жавоблар таклиф этилади, булар ичида бир неча тўғри жавоб бўлиши мумкин. Тест топширувчи барча тўғри жавобларни топиши керак).

Битта тўғри жавобни топиш лозим бўлган топшириқнинг қулийлиги:

- мазмунни тўлик қамраб олиши (биринчидан, бу топшириқда амалда ихтиёрий ўқув фанининг мазмунни тўлик ёритиб берилиши мумкин, иккинчидан, бу шакл ўқув фанининг мазмунини тўлик қамраб олиш имконини беради);

- текшириладиган ўқув фаолияти даражасини тўлик қамраб олиши оддий ёдлаб қолищдан кўра мураккаброқ даражадаги таҳлил, билимларни ностандарт ҳолатларда қўллай олиш, тушуниш ва б.;

- самарадорлик (тест синовининг тезлиги бир вақтнинг ўзида кўп топшириқларни бериш имконини беради);

- технологиклиги (автоматик равища текширилиши ва компьютер шаклида тест ўтказишга осон мослашиши мумкин);

- ўқувчилар балларининг дастлабки ҳисобини чиқаришнинг соддалиги (қоидага кўра, дихотомик (тўғри ёки нотўғри) баҳо);

- объективлиги (тўғри жавоб эталони мавжуд, шунинг учун экспертлар томонидан текширилмайди);

- тескари алоқа имкониятлари – чалғитувчи жавоб (дистрактор), танланган талабалар ва педагогга таълим жараёнидаги муаммолар ҳақида маълумот бериши мумкин;

- топшириқни ишлаб чиқиш ва таҳлил қилиш назарияси яхши ривожланганлиги;

- бу шаклда яхши ёзилган топшириқ валидли ва ишончли бўлади.

Камчиликлари:

- тахмин қилиши имконияти мавжудлиги. Пухта тайёрланмаган ўқувчилар мураккаб топшириқларнинг тўғри жавобини тахминан топишга ҳаракат қиласди;

- қўлланилии соҳасининг чегараланганлиги (баъзи бир ўқув мақсадларига эришиш учун яроқсизлиги, масалан, мисол келтира олишини, оригинал ғоялар бера олишини, топшириқни бажариш учун турли стратегия қўлашини текшириш ва б.);

- ишлаб чиқишининг қийинлиги (ёпиқ шаклдаги тест топшириқларини ишлаб чиқиш бошқа шаклдаги тест топшириқларига қараганда кўп вақтни ва катта кучни талаб этади. Бир хил чалғитувчи жавобни топиш муайян маҳорат талаб қиласди);

Битта тўғри жавобни топиш лозим бўладиган топшириқларга талаблар:

топшириқ матни икки хил маъноли ва тушунарсиз тузилган бўлмаслиги лозим;

топшириқнинг асосий қисми қисқа берилиши (одатда, битта гап етти-саккиз сўздан иборат) ва оддий синтактик тузилмага эга бўлиши керак;

асосий матнни тест топширигининг асосий қисмига киритиш керак, жавоб қисмига фақатгина энг муҳим, ушбу муаммога калит сўзларни қолдириш керак (икки-учта сўздан қўп бўлмагани яхши);

битта топшириқнинг барча жавоблари тахминан бир хил узунликда бўлиши керак;

тўғри жавобнинг битта рақам (ёки ҳарф) остида берилиш частотаси бир хил бўлиши лозим ёки тўғри жавоб рақами тасодифий равища танланади;

топшириқнинг асосий қисми ушбу муаммога ёт бўлган қўшимча маълумотлардан ҳоли бўлиши керак;

қоидаларга кўра топшириқнинг асосий қисми тасдиқ шаклида берилади, тўғри жавоб қўйилганда ҳақиқатга ёки ёлғон гапга айланади;

топшириқнинг асосий қисмига киритиш орқали, жавоблардан барча такрорланадиган сўзларни олиб ташлаш керак;

чалғитувчи жавобларни шаклантиришда зарурат бўлмагандаги сўзларни ишлатмаслик лозим: *барчаси, бирортаси ҳам, ҳеч қачон, доимо ва б.* ва жумлалар: *келтирилганлардан бирортаси ҳам, барча келтирилганлар* ва б., булар тўғри жавобни тахминан топишга ҳисса қўшади;

шунингдек, чалғитувчи жавобларни шаклантиришда заруратсиз қўидаги сўзларни ҳам ишлатмаслик лозим: *баъзан, тез-тез* ва шунга ўхшаш, бундай сўз ва жумлалар тест топширувчилар томонидан субектив қабул қилинади;

барча чалғитувчи жавоблар тўғри жавобни билмайдиган тест топширувчилар учун бир хил эҳтимолликда жалб этувчи бўлиши лозим;

барча жавоблар тузилиши жиҳатидан параллел ва грамматик жиҳатдан топшириқнинг асосий қисми билан боғлиқ бўлиши керак;

битта тест топширигининг жавоби бошқа тест топширигининг тўғри жавобига калит бўлиб хизмат қиласлиги лозим;

ҳеч бир чалғитувчи жавоб қисман тўғри жавоб бўлиб тўлдирилганда тўғри жавобга айланадиган бўлмаслиги лозим.

Бир неча тўғри жавобни топиш бўйича топшириқлар икки хил типда бўлиши мумкин.

Тўғри жавоблар сони тест топширувчига номаълум. Бунақа топшириқлар кўрсатмаси қўидаги кўринишда бўлади: “Барча тўғри жавоблар рақамини танланг”.

Тўғри жавоблар сони тест топширувчига маълум. Бунақа топшириқлар кўрсатмаси мисол учун қўидаги кўринишда бўлади: “Учта тўғри жавобни топинг”.

Очиқ шаклдаги топшириқлар.

Очиқ шаклдаги топшириқларда тайёр жавоблар берилмайди, тест топширувчи уларни ишлаб топиши ёки ўйлаб топиши керак. Очиқ шаклдаги топшириқлар икки хил типда бўлади:

жавобни тўлдириш учун топшириқ;

жавоби эркин тарзда тузиладиган топшириқ.

Жавоби тўлдириладиган топшириқ учун умумий талаблар қўидагилардир.

ҳар бир топшириқ, қоидага кўра, чизиқчалар, нуқталар ёки катак билан белгиланган жой фақат битта тўлдиришга қаратилган бўлиши керак;

бир чизиқ асосий элемент ўрнига қўйилади, бу назорат қилинаётган фаннинг энг муҳим билимларидан бири бўлади;

тўлдириш гап охирига қолдирилса, яхши бўлади. Жавоб топшириқни ўқиш жараёнида ҳосил бўлади;

барча чизиқчаларни бир хил узунликда бериш тавсия этилади;

агар имкони бўлса, чизиқчалардан кейин ўлчов бирликлари берилиши лозим;

топшириқ матни синтактик тузилиши бўйича жуда оддий ва топшириқни тўғри бажариш учун керак бўладиган минумим даражада кам маълумот бўлиши керак;

тест топшириқларида такрорлашга ва икки карра инкорга йўл қўйилмайди.

Жавоби эркин тарзда тузиладиган топшириқнинг қулайлиги:

- ишлаб чиқилишининг осонлиги;

- қизиқарли ва мазмунан турлича бўлиши;

- талабалар томонидан ўз имкониятларини намоён қила олиши, ўз фикрини айта олиши;

- ўқишига рафбатлантириш;

- тахмин қилиб тўғри жавобни топишнинг иконияти йўқлиги.

Камчиликлари:

- техник жиҳатдан ноқулайлиги (автоматик текшириш имконияти йўқлиги, текшириш кўп вақтни талаб қилиши);

- текширишнинг инсон омилига боғлиқлиги сабабли, ишончлилигининг пастлиги;

- бажариш жуда кўп вақтни талаб этади, шунинг учун мазмунни камроқ текшириш имкониятини беради, валидлиги жуда паст;

- натижаларни таҳлил қилишда қийинчиликлар туғдиради.

Мос келишини аниқлашга доир топшириқлар.

Улар икки хил типда бўлиши мумкин:

бир-бирига аниқ мос келади. Чапдаги устуннинг ихтиёрий бир элементига ўнг томондаги устун элементидан фақат биттаси мос келади ва аксинча;

бир хилда аниқ мос келмайди. Чап устуннинг хар хил элементига ўнг томондаги айнан бир элемент мос келади.

Мос келишини аниқлашга доир топшириқларга умумий талаблар:

топшириқ шундай шакллантириладики, натижада бутун таркибий қисмни иккита кўплік (устун) шаклида бериш ва номига мос ҳолда устуннинг барча маълумотларини умумлаштириш мумкин;

ўнг устунда ҳеч бўлмаганда бир неча чалғитувчи жавоб бўлиши керак, ўнг устун элементлари чап устундан икки баробар кўп бўлса, яна ҳам яхши бўлади;

битта топшириқда барча чалғитувчи жавоблар бир хил эҳтимолда тўғри бўлиши лозим;

ҳар бир тест топшириғида устун элементлари битта асосга мувофиқ бир хил мавзудан танланган бўлиши керак;

барча топшириқлар битта саҳифада жойлаштирилган бўлиши лозим, алоҳида элементларни бошқа саҳифага кўчиришдан қочиш лозим.

Тўғри кетма-кетликни аниқлашга доир топшириқ:

етарлича маҳсус, кўпгина фанларнинг мазмунини ушбу шаклга келтиришнинг имкони йўқ;

муайян билимлар текширилади: алгоритим, жараёнли, тартибли, технологик;

бошқа турдаги топшириқларга нисбатан, ўкувчилар учун анча қийин бўлган топшириқ;

ишлиб чиқилишида қийинчилик туғдиради.

Шундай қилиб, тест синовларининг мақсадидан ва ўтказиш тартибидан келиб чиқсан ҳолда тестология ва педагогик ўлчовлар назарияси асосларига таяниб, турли тест топшириқлари шакллари қўлланилади. Тест топшириқларини тузища юқорида қайд этилган, топшириқлар сифатига қўйилган, бирламчи қоида ва талаблар бажарилишини таъминлашга эришиш зарур.

Адабиётлар:

1. Аванесов В.С. Композиция тестовых заданий, М., 2002.
2. Чельшкова М.Б. Теория и практика конструирования педагогических тестов. М., 2002.
3. Клайн П. Справочное руководство по конструированию тестов. Киев, 1994.

ПЕДАГОГИК ЎЛЧОВЛАРДА ТЕСТ ТОПШИРИҒИ ТУРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ БЎЙИЧА УСЛУБИЙ КЎРСАТМА

3. З. Мирвалиев

ДТМ бош мутахассиси

Мамлакатимизда таълим соҳасини юксак даражага қўтариш, рақобатбардош, юқори маънавиятли, салоҳиятли ва билимли мутахассис кадрларни тайёрлаш бирламчи ва муҳим вазифалардан бири бўлиб қолмоқда.

Абитуриентларни таълим муассасаларига танлов асосида қабул қилишда, таълим бериш жараённида ўкувчи ва талабалар билимини назорат қилишда тест муҳим ўринга айланди, у бўйича таълимнинг самарали сифат менежменти тизимини ташкил этиш ва ривожлантириш учун шарт-шароитлар яратиш тез суръатларда олиб борилмоқда.

Юртимизда олиб борилаётган ислоҳотлар меваси сифатида тест синовларини ўтказиш соҳаси ҳам тубдан янгиланаётганлиги, сифат даражаси бўйича янги босқичга қўтарилаётганлигини алоҳида эътироф этиш керак.

Бу борада Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Республика олий таълим муассасалари бакалавриатига кириш тест синовларини ўтказиш тартибини такомиллаштириш тўғрисида” 2017 йил 16 ноябрдаги ПҚ-3389-сон қарори ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 20 февралдаги “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Давлат тест маркази фаолиятини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги 130-сон қарори қабул қилинди ва амалда 2018/2019 ўқув йили учун олий таълим муассасаларининг биринчи курсигаabituriyentlar таркибидан билимли ёшларни тест синовлари асосида қабул қилиш жараёни янги тизимда йўлга қўйилди.

Ушбу қарорлар ижроси амалда тўла-тўқис тест синовларини ўтказиша адолатлиликни, шаффофликни таъминлашга қаратилди ҳамда эндиликда олий таълим муассасаларига фақат билимли, иқтидорли ва муносиб ёшларни қабул қилиш учун замин яратилмоқда.

Хозирги кунда тестология ва педагогик ўлчовлар борасида илмий-услубий ишларни олиб бориш, натижаларини Давлат тест маркази амалиётига татбиқ этиш долзарб вазифалардан биридир.

Мазкур соҳада тест синовининг янги турларини ишлаб чиқиш ва уларнинг сифатини баҳолаш, статистик жиҳатдан ўрганиш ривожланган хорижий давлатлар таълим муассасаларида яхши ривожланган бўлса-да, бизнинг мамлакатимизда тестларнинг янги турларини ишлаб чиқиш, педагогик ўлчов назариясининг илмий усулларини ўрганиш долзарб вазифалардан бири бўлиб қолмоқда ва бу борада Давлат тест маркази соҳа мутахассислари томонидан бир қатор йўналишларда илмий-услубий, статистик тадқиқотлар олиб борилмоқда.

Давлат тест марказининг соҳа мутахассислари ўз малакаларини хорижий давлатлар илмий-тадқиқот институтларида оширмоқда, жумладан, марказнинг тестология ва фанлардан тест тузиш бўйича эллик нафардан кўп мутахассислари Россия Педагогик ўлчовлар федерал институтининг ҳамда Патрис Лумумба номидаги Россия Халқлар дўстлиги университетининг тестология ва педагогик ўлчовлар соҳасидаги етук мутахассислари, фан докторлари, профессор-олимларининг машғулотларида қатнашиб, ўз малакаларини оширдилар.

Мазкур услугбий кўрсатма Давлат тест маркази Тестология, педагогик ўлчовлар ва илмий методик кадрлар тайёрлаш бўлимининг илмий-услубий изланишлари, малака ошириш жараёнида олинган билимлари маҳсули бўлиб, унда педагогик ўлчовларда қўлланадиган тест топшириқлари турлари бўйича маълумотлар баён қилинган.

Ушбу услугбий кўрсатма яратилишида ривожланган хорижий давлатларнинг, Россия федерациясининг педагогик ўлчовлар соҳасидаги илмий-услубий янгиликларидан ва Давлат тест марказининг кўп йиллик амалий тажрибаларидан фойдаланилди.

Тест топшириқ турлари ва уларга қўйиладиган умумий талаблар

Тест топшириқларининг амалиётга татбиқ этилиши борасида маҳаллий ва хорижий адабиётлардаги илмий маълумотлар таҳлилиниң натижалари, улар қўйидагиларга таснифланишини қўрсатди [1- 4,6]:

- танлов усули билан берилган тест топшириғида, талаба тўғри жавобни тўплам жавоби, яъни дистракторлардан танлайди;
- жавоби эркин тузиладиган топшириқда, талабадан мустақил равишда жавоб бериш талаб қилинади;
- мувофиқлик мослигини аниқлаш топшириғида икки тўплам элеменларининг ўзаро мослиги аниқланади;
- тўғри тартибни аниқлаш топшириғида, синаувчи, яъни тест топширувчидан ҳаракат ёки жараёнларда келтирилган шароитда, элементларнинг тўғри кетма-кетлигини аниқлаш талаб этилади.

Таклиф этилаётган тўрт турдаги тест топшириқлари асосий ва энг кўп тарқалган бўлиб, уларни абсолютлаштиришга асос йўқ. Назоратга олинган обьектнинг ўзига хос таркибига кўра маълум бир мақсад учун янги тест назорат шаклларини ишлаб чиқиши талаб этилади. Одатда, бундай янгиликларда уларнинг шакллари, ўзига хос элементлар комбинацияси асосида амалга оширилади.

Тест синовида топшириқ қандай шаклда бўлишидан қатъи назар, тестлар қўйидаги умумий талабларга риоя қилиши керак:

- ҳар бир топшириқ ўз тартиб рақамига эга бўлиб, унда ишнинг оғирлик даражасига қараб статистик баҳолашдан кейин ўзгариши ва тест топшириқларини тақдим этиш стратегиясини танлаш мумкинлиги;
- ҳар бир топшириқ тўғри этalon жавобга эга бўлиши (топшириқни баҳолаш учун тузилган этalon жавоб);
- танланган шакл доирасида, белгиланган топшириқдаги барча элементлар аниқ белгиланган жойда келтирилиши;
- топшириқни бажариш учун стандарт йўриқнома ишлаб чиқилиши, яъни ҳар бир топшириқдаги матн аввалги шакл доирасида ўз шаклни ўзгартирмаслиги;
- тестларда ҳар бир топшириқ учун бир хил шаклда стандартлаштирилган текшириш тартиби билан (бирламчи) барча жавобларга дихотомик (бажарилиши фақат альтернатив баҳоланадиган топшириқ: тўғри бажарилган (одатда муайян бирлик билан белгиланади) ёки нотўғри бажарилган (одатда нуль билан белгиланади) ёки политомик (бажарилишида бир неча жавоб категорияси бўлиши эҳтимолда тутилган топшириқ; ҳар бир жавоб турлича баҳоланади (масалан, тўлиқ тўғри жавоб – 2 балл, қисман тўғри жавоб – 1 балл, нотўғри жавоб – 0 балл)) баҳолаш тартиби ишлаб чиқилиши белгиланади [5].

Тестология ўлчов жараёнлари етарлича стандартлаштирилади ва бунда:

- бирор-бир синаувчига бошқа синаувчига нисбатан устунлик (енгиллик, шароит) яратилмайди;
- истисносиз синаувчиларнинг барча жавобларига олдиндан ишлаб чиқилган балларни ҳисоблаш тизими қўлланилади;

- топшириқларга статистик йўл ва олинган қийматлар орқали бир хил шакл ёки турли шаклларда тартибга солинган оғирлик даражага коэффицентидаги тестлар киритилган бўлади;
- тест жараёни турли гуруҳ синалувчилари учун бир хил вақт ва бир хил шароитда ўтказилади;
- гуруҳ тест топширувчиларининг мотивацияси тенглаштирилади;
- барча синалувчилар бир хил топшириқни бажаради.

Охирги ҳолатда қўчириш, маслаҳат бериш ва бошқа қоидаларнинг бузилиши истиснодан холи эмас, шунинг учун бир хил қийинчилик даражасидаги бир неча параллел варианtlарни яратишга ҳаракат қилинади. Агар ҳар бир синалувчига индивидуал тест топшириқлари ишлаб чиқилса, хавотирдан холидир. Умуман олганда, топшириқ шакли ва варианtlар сонини танлаш, мазкур назоратнинг мақсади, курс таркиби, тестнинг ишончлилик даражасига боғлиқ бўлади. Хусусан, аттестация жараёнларида тестларнинг бутун мазмунини қамраб олишга ҳаракат қилинади, кўп жавобли топшириқларни киритилиши, жумладан, юқори технологик даражага кўтариш ва уларнинг автоматлаштирилганлиги, тестларнинг давомийлиги, ишончлилиги, педагогик ўлчов натижаларининг мазмуний валидлигини оширади.

1. Бир ёки бир неча тўғри жавоб вариантли танлов топшириқлари

Фан ўқитувчилари томонидан шакллантирилган танлов асосидаги топшириқларда (*ёки ёпиқ топшириқлар – баъзи адабиётларда методик характерга эга бўлган номланиши бўлиб, синалувчи бундай топшириққа жавобни ёпиқ рўйхатдан (одатда унга 2 - 10 тагача вариант таклиф этилади) танлаб олади*) мазмуннинг асосий қисмидаги тайёр жавоб вариантини аниқлаб олиш мумкин. Жавоблар орасида одатда биргина тўғри, аммо бошқа варианtlарда бир неча, шу жумладан, турли даражадаги жавоблар бўлиши истиснодан холи эмас.

Нотўғри, аммо тўғри жавобга ўхшаш жавоблар дистрактор (*ёпиқ турдаги тест топширигига берилган, тўғрига ўхшаб кўринса-да, аслида тўғри бўлмаган жавоб вариантни*) деб аталади [5]. Агар топшириқда иккита жавоб берилса ва улардан бири дистрактор бўлса, унда тўғри тасодифий танлаш 50% ни ташкил этади. Дистрактор сонини аниқлаш топшириқнинг жуда оғир ва қийин ўқилмаслиги учун танланади, бироқ айни пайтда тўғри жавобни тахмин қилиш эҳтимоли нисбатан олганда мавжуд бўлади. Шунинг учун, кўп ҳолларда, топшириқларда 4 ёки 5та дистракторли, аммо баъзи ҳолларда (тўғри жавоб вариантини топиш эҳтимоли жуда катта бўлганда) бундай эҳтиёж мавжуд бўлганда уларнинг сони 6-7га, ҳатто 10тагача етиши мумкин.

Одатда, иккита жавобли топшириқлар экспресс диагностикада кўп кўлланилади. Масалан, ўқув модулга кириш учун автоматлаштирилган назорат ва ўқув дастурларида, мослашувчан синов билан ёки ўз билимидаги бўшлиқларни тез аниқлашни талаб қиласидиган, ўз-ўзини кузатиш кабиларда ишлатилади. Якуний

текширувда икки ва уч жавобли топшириқларни қўллаш орқали тахмин қилиш натижасида ўлчаш хатолиги ошади, шунинг учун улар аттестация тестларига киритилмайди, бу топшириқларнинг ишончлилик даражасини ошириш учун бир хил сон қийматидаги жавоблардан фойдаланилади.

Дистракторлар нотўғри шакллантирилса, ҳаттоқи энг заиф синов гуруҳлари учун ҳам, улар ўз функциясини бажаришни тўхтатади ва аслида вазифа режалаштирилмаса, кам жавоблар билан олинади. Энг ёмон томони топшириқдаги барча дистракторлар ишламаса, кўпчилик талабалар вазифани тўғри бажариб, фақат тўғри жавоб вариантини танлашади. Идеал ҳолатда, ҳар бир дистрактор барча саволларга нотўғри жавобни танлашни тенглаштиради. Дистракторни танлаган талабалар тўғри жавоб сифатида ҳисобга олиниб, субъектларнинг намунаси бўйича тестнинг биринчи синовидан кейин баҳоланади. Албатта, нисбатларнинг аниқ тенглиги маълум бир даражада мукаммалаштирилади, бу эмпирик текширувларда деярли мавжуд эмас, аммо шунга қарамасдан, вазифаларни яратишда бу тенгликка интилиш талаб этилади.

Турли даражада тайёргарликдан ўтган синаловчилар томонидан ҳар бир дистракторни танлаб олиш тебранмасини чуқур таҳлил қилиш, тегишли жавобларнинг ҳақиқийлигини тасдиқлаш имконини беради. Агар дистрактор билими паст талабаларни жалб қилиб, жуда кам сонли топшириқлар бажарилса, у валидли ҳисобланади (*Тестнинг валидлиги – тест шакли ва мазмунининг уни тузувчилар фикри бўйича тест баҳолаши ёки аниқлаши зарур бўлган нарсага мувофиқ келиши. Тест топшириқлари тестнинг мақсадларига, синалаётган (текширилаётган) материал мазмунига мувофиқ келиши керак ва тест топшириқларини муваффақиятли бажарган синаловчининг материални қўйилган талабларга мос даражада билиш эҳтимоли юқори бўлиши зарур. Валидликнинг турли типлари, масалан, мазмуний ва критериал типлари мавжуд. Тестнинг валидлиги қанчалик юқори бўлса, тест натижаларидан хулоса ва башиоратлар қилиши учун фойдаланиши шунчалик асосланган бўлади. Тест, унинг конструктив (асосий), мазмуний ва критериал валидликлари аниқлангандан кейин, валид деб эътироф этилади*) [5]. Дистрактор кучли талабаларга биринчи навбатда таъсирили бўлса ва акс ҳолда унинг амал қилиши юқори эмас, бу ҳолда топшириқ қайтадан тузилади. Умуман олганда, агар билимли талабалар уни тўғри бажараётган бўлсалар-у ва билимсизлар эса хоҳлаган дистракторни танлашса, тест топшириғи «яхши ишлайди» деб ҳисобланиши мумкин.

Синов шакллар (бланкалар) ёрдамида амалга оширилган бўлса, унда битта тўғри жавобни танлаб олган вазифалар қуйидаги қўрсатмада келтирилади: “ТЎҒРИ ЖАВОБ РАҚАМИНИ (ҲАРФ) БЎЯНГ”

Бир нечта тўғри жавоб билан бериладиган топшириқларда одатда жорий текширувда тўғри маълумотни текшириш учун ишлатилади, бироқ баъзи ҳолатларда фаннинг ўзига хослиги мазкур тест турини якуний тестларга қўшишга мажбур этади. Уларга барча тўғри жавобларни танлаш кераклигини таъкидлайдиган махсус қўрсатма ва шакл келтирилади: “БАРЧА ТЎҒРИ ЖАВОБ РАҚАМЛАРИНИ БЎЯНГ”.

Агар дистракторлар жуда оз бўлса ва тўғри жавоблар жуда кўп бўлса, уларни тахмин қилиш осон бўлади. Ушбу вазиятдан чиқиш йўли сифатида, агарда бу дидактик назорат мақсадларига зид келмаса ва мавзу мазмуни билан рухсат этилган бўлса, жавобларга битта нотўғри жавоб киритилади ва талабалардан нотўғри жавобни танлаш сўралади. Бундай ҳолатда, йўриқнома қўйидаги кўринишида бўлади: “НОТЎҒРИ ЖАВОБ РАҚАМИНИ БЎЯНГ”.

Баъзан, муаллифнинг мақсадига кўра, топшириқларни ишлаб чиқишида бир неча тўғри жавоблар яратилади, улар орасида энг тўғри ва нисбатан кам эътиборлилари ҳам мавжуд бўлади. Бундай ҳолда топшириқка қўйидаги кўрсатма келтирилади: “ЭНГ ТЎҒРИ ЖАВОБ РАҚАМИНИ БЎЯНГ”.

Компьютерда топшириқ берилганда, йўриқнома қўйидаги кўринишида келтирилади: “ЖАВОБ БЕРИШ УЧУН, ТУГМАНИНГ ТЎҒРИ ЖАВОБ РАҚАМИ (ҲАРФИ)НИ КИРИТИНГ”.

Одатда, агар барча вазифалар бир хил шаклда шакллантирилса, йўриқнома синов бошида келтирилади. Акс ҳолда, турли шакллардаги топшириқлар тестга киритилган бўлса, йўриқнома ҳар бир шакл ўзгариши билан ўзгаради. Тестни бажариш қанчалик қийин бўлса, тўғри ва нотўғри жавобни танлаш бўйича кўрсатмага амал қилиш осон кечади. Диққатини жамламаган ва йўриқномага эътибор бермаган талабалар, ҳатто улар тўғри жавоб вариантини билишса ҳам, вазифаларнинг бир қисмини нотўғри бажаришади. Шунинг учун тестда йўриқнома иложи борича кам ҳолларда, яъни тест топшириқларини тақдим этиш стратегияси талаб қиласиган даражада тавсия этилади.

Танловга эга бўлган топшириқларнинг бажарилиши, уларнинг тезлигига, тест учун умумий баллларни хисоблашнинг оддийлиги, ўқувчиларнинг жавобларини текшириш тартибини автоматлаштириш ва синов натижаларини баҳолашда субъектив омилни аста-секинлик билан камайтиришга боғлиқ бўлган бир қатор афзалликларга эгадир. Уларнинг ёрдами билан, ўрганилаётган ўқув фанининг мазмунини янада тўлдириш ва натижада тестнинг мазмунан кучлилигини ошириш мумкин. Топшириқда танлов шаклининг афзаллиги, шубҳасиз, унинг универсаллиги ва деярли барча фанларга мос келишидадир.

Танлов усулидаги топшириқнинг камчилиги, тестнинг энг қийин топшириқларига жавоб беришда кам тайёргарлик кўрилган вазифаларга тахминий жавоб бериш ҳисобланади. Гарчи тахмин қилиш мавжуд бўлса-да, тест тузувчиilar турли усуллар билан уларга қарши курашишни ўргандилар. Баъзида тахмин қилиш йўли билан жавоб ўрнига нотаниш вазифани бажаришга йўналтирилган махсус йўриқнома киритилади. Бошқа ҳолатларда нолга яқин бўлган оғирлик коэффиценти тестнинг энг оғир вазифаларидан олинган билими паст ўқувчиilar балларини ҳисоблашда қўшилади. Баъзида махсус формуулалар билан тахминларни коррекция қилиш учун индивидуал баҳоларни тузатишда ишлатилади. Охирги услуг ва уни тушунтириб берадиган формула ушбу бобнинг охирида келтирилган.

Билимларни ўрганишнинг ижодий жиҳатлари ва талабалар учун шартшароитларни ўзгартириш, талаб қилинадиган ҳолатлар ҳақида билимларни қўллаш билан боғлиқ бўлган самарали даражадаги маҳоратларни синаш учун танлов билан вазифаларни қўллашда муайян қийинчиликлар юзага келади. Кейинчалик тайёр жавобларни танлаш билан боғлиқ топшириқларни кўпинча фойдаланиш мумкин эмас. Оммавий аттестация тестида, текширувчиларни балларини ҳисоблаш учун самарали компьютерлаштирилган технологияларни жалб қилиш ва педагогик ўлчаш натижаларини юқори объективлилиги зарур бўлганда, топшириқларнинг камчиликларини аниклайди. Шунинг учун, ушбу шакл якуний аттестация тестларини ишлаб чиқишида кам ҳолларда устунликка эгадир.

Танлов жавоб топшириқлари бир қатор талабларга жавоб бериши керак ва унинг бажарилиши тест сифатини оширишга имкон беради, булар:

- топшириқ матнини шакллантиришда ҳар қандай иккиланиш ёки ноаниқлик бартараф қилинади;
- топшириқнинг асосий қисми қисқа шаклда, бир жумлада 7-8 сўздан ошмаган ҳолда шакллантирилади;
- вазифа синтактик тузилиши, мазмуни ўзгартирилмасдан ўқувчининг аниқ тушунишига таъсир қилмаган ҳолда соддалаштирилади;
- топшириқнинг асосий қисмida 2-3 тадан энг муҳим калит сўzlари киритилиб, топшириқнинг муаммо шарти шакллантирилади;
- битта топшириқ учун барча жавобларнинг тахминий узунлиги бир хил бўлиши керак ёки тўғри жавоб бошқалардан кўра қисқа бўлиши мумкин, бироқ барча тест топшириқларида эмас;
- топшириқ матнидан тўғри жавобни танлаб олишга ёрдам берадиган барча илмоқлар жамланмаси чиқариб ташланади;
- турли тест топшириқларида тўғри жавоб учун манзил рақамини танлаш частотаси тахминан бир хил бўлиши ёки тўғри жавоб учун жой рақами тасодифий танланган бўлиши керак;
- ҳар бир топшириқда шакллантирилган дистракторлар тўғри жавобни билмаган синалувчиларга нисбатан teng даражада жалб қилиниши керак.

Тест топшириқларни ишлаб чиқишида уларнинг бир-бирига нисбатан мустақиллигини таъминлаш, яъни бир топшириқдаги матн шарти бошқа топшириқ учун жавоб бўлишини истисно қилиши керак. Таълим ютуқларига мансуб тестлар психологик тест топшириқларида учрайдиган тузоқларни ўз ичига олмаслиги зарур.

Тошириқдаги иккита саволга жавоб берадиган дистракторни танлашнинг энг оддий усули - бу тўғрини инкор этишдир. Шунга қарамай, дистракторларнинг ўрнига "ҳа-йўқ" сўзини ишлатиш тавсия этилмайди, чунки аниқ жавоб берилиши мумкин бўлган сўзларни ифодалаш қийин.

ТЕСТ СИНОВ ТОПШИРИГИГА МИСОЛЛАР

1-Топшириқ

АБСАЛЮТ ТЕМПЕРАТУРАДА C_u МЕТАЛЛИНИНГ ЭЛЕКТР ЎТКАЗУВЧАНЛИГИ

A. Ошади

B. Камаяди

Учта жавобли тест топшириқлар билан бир қаторда, иккита жавобли топшириқлар одатда тезкор диагностика учун ишлатилади. Баъзан ишламайдиган дистракторларни олиб ташлаш учун учта жавоб пайдо бўлади. Умуман олганда, уларни самарасиз деб ҳисоблаш мумкин, чунки улар етарли даражада қисқа эмас ва айни вақтда уларда тўғри жавобни тахмин қилиш даражаси юқори.

2-Топшириқ

ХИТОЙ ХАЛҚ РЕСПУБЛИКАСИДА УРБАНИЗАЦИЯНИНГ ЮҚОРИ ДАРАЖАДА БЎЛИШИГА САБАБ НИМА ?

A. Юқори иқтисодий ўсиш

B. Катта шаҳарларнинг кучайиши

C. Кўплаб аҳолининг қишлоқлардан шаҳарларга миграцияси

D. Аҳолининг яшаш шароитининг ўсиши

Кўпгина тестларда 4-5 жавобли топшириқлар мавжуд бўлиб, фақат биттаси тўғридир. Улар етарли даражада қисқа бўлиб, моҳирлик билан ишлаб чиқилган ва тўғри жавобни тахмин қилиш даражаси юқори эмас (тўртта жавоб учун 0,25 ва бешта жавоб учун 0,20).

3-Топшириқ

ПУЛ МУАЙЯН ТОВАР ҲИСОБЛАНИБ, ПУЛ НАЗАРИЯСИГА МОС КЕЛИШИ ҲАҚИДАГИ ТАХМИН НИМАДА?

A. Номиналлик

B. Металлик

C. Миқдорий

D. Мехнат

4-Топшириқ

ҚАНДАЙ ТУЗИЛМА ИЖРОЧИЛАРНИНГ ИККИЛАМЧИ БЎЙСУНИШ ПРИНЦИПИ АСОСИДА ҚУРИЛГАН МАШҲУР ТАШКИЛОТДИР ?

A. Лойиҳали

B. Тизимли

C. Матрицияли

D. Функционалли

E. Географикли

5-Топшириқ

НАРХ ... ЎЛЧОВ ФУНКЦИЯСИНИ БАЖАРАДИ

- A. Металл пул
- B. Идеал пул
- C. Ҳақиқий пул
- D. Фикран қабул қилинган пул
- E. Кредит пул

Баъзан танлов асосидаги топшириқлар икки томонлама тузилишга эга бўлиб, улар фикрлар жамланмаси ёки таклифларни тавсия қиласди ва таққослаш йўли билан баҳоланиб, жавоб таклиф қилинади. Мисол учун, 6-топшириқда "Менежмент" тушунчасини ифодаловчи турли хил ҳақиқатга яқин жавоб вариантларини бир-бири билан солиштириш мумкин бўлади.

6-Топшириқ

ҚАНДАЙ ТУШУНЧАЛАР "МЕНЕЖМЕНТ" ТУШУНЧАСИГА ХОС ХУСУСИЯТНИ БЕРАДИ ?

1. Олдиндан ишлаб чиқилган режага мувофиқ, ишлашнинг узлуксиз мониторинги билан белгиланган мақсадга эга бўлган ташкилотда ресурсларни тақсимлаш ва жойлаштириш жараёни.

2. Фаолият самарадорлигини ошириш мақсадида ташкилотларни бошқариш усули, тамоили, восита ва шаклларининг мажмуаси.

- A. Фақат биринчи
- B. Фақат иккинчи
- C. На биринчи, на иккинчи
- D. Иккаласи

Кўриниши жиҳатидан ўзига эътиборни қаратса ҳам, 6-топшириқ мазмунан муваффақиятсиз шакллантирилган, чунки у талабаларнинг жавобини нотўғри талқин қилишга олиб келиши мумкин. Иккита А ва В жавоб танланганда D жавоб тенг бўлса-да, топшириқка берилган жавоблар ҳар доим нисбий мустақилликка эга бўлиши ва мажозий маънода бир-бирини инкор этиши керак.

Модификацияланган танлов топшириғига бир мисол тариқасида, келтирилган 7-топшириқда танланган жавоб хаёлий жиҳатдан асосий қисмда келтирилган чизиқни алмаштириш учун таклиф қилинади.

7-Топшириқ

МЕНЕЖМЕНТ БУ ВАЗИФАЛАРНИ ҲАЛ ҚИЛИШ УЧУН _____ РЕСУРСЛАРНИ МУВОФИҚЛАШТИРИШДИР.

- A. Ахборот
- B. Инсоний
- C. Вақтинчалик
- D. Моддий

Тест жараёни шароити яхши ташкил этилган ҳолда маълумотларни бир-бирига айтиб қўйиш, кўчириш ва бошқа ҳолатлар сабабли, бир вариантли тестлардан фойдаланиш яхши самара бермайди. Шунинг учун ҳам 5-8 та параллел тест вариантларидан ташкил топган фасет (йўналтирилган) топшириқларни ишлаб чиқиши мақсадга мувофиқ бўлади. Фасет бу тест мазмуни таркибининг бир хил элементларидан бир нечта вариантларни тақдим этиш шакли хисобланади. Ҳар бир синалувчи фасетдан фақат битта вариант топширигини олади. Бу ҳолда, барча тест топширувчи гурӯхлар бир хил, лекин турли фасет элементлари ва шунга мувофиқ турли хил жавоблари келтирилган топшириқларни бажарадилар. Шундай қилиб, бир вақтнинг ўзида иккита вазифа ҳал этилади: кўчиришни олдини олиш ва тест вариантлари параллеллиги имконияти таъминланади. Масалан, 8-топшириқда фигурали қавсларда кўрсатилган ҳар бир шаҳар учун олинган иккита синов топшириғи келтирилади.

8-Топшириқ

{МОСКВА,САНКТ-ПЕТЕРБУРГ} ШАҲАРЛАРИ АТРОФИГА ТААЛЛУҚЛИ САРОЙ МАЖМУАСИ:

- 1) Павловск, Ораниенбаум
- 2) Архангельск, Царицын
- 3) Петергоф, Гатчина
- 4) Қирол саройи, Стрельня

Муаллиф 9-топшириқда иқтисодий назарияга ҳеч қандай алоқаси йўқ элементни танлашни таклиф қиласи, бу эса назоратнинг дидактик мақсадларига мос эмас, аммо бу ҳолат фан мазмуни билан рухсат этилади.

9-Топшириқ

ИҚТИСОДИЙ НАЗАРИЯ МАВЗУИГА АЛОҚАДОР БЎЛМАГАН ҚОИДАЛАР

- A. Иқтисодий манфаатлар
- B. Чексиз маблағлар
- C. Эҳтиёжларни қондиришдан максимал даражада фойдаланиш
- D. Ресурслардан самарали фойдаланиш
- E. Хуқуқий алоқалар

Бундай топшириқлар, шунингдек, 10-топшириқда бўлгани каби, бир нечта тўғри жавобли топшириқлар одатда аттестация тестларига киритилмайди, натижалари таълимда, маъмурий-бошқарув қарорларини қабул қилишда ишлатилади.

10- Топшириқ

ҚАРОР ФУНКЦИЯСИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ УЧТА ИНТЕГРАЛ ПАРАМЕТРНИ АНИҚЛАНГ

- A. Ноаниқлиги
- B. Мураккаблиги
- C. Харакатчанлиги
- D. Аниқлиги
- E. Чекланганлиги

Тестнинг ҳар бир вазифасида режалаштирилган тўғри жавобларнинг барчасини танламаган талабада қисман тўғри жавобларни кўриши, тест синовлари натижалари объективлиги ва таққосланиш даражасини пасайишига олиб келади. Агар бир неча тўғри жавоблардан қочиш мумкин бўлмаса, баҳолаш тартибида стандартлаштиришни ошириш учун ҳал қилувчи қоида жорий этилади. Мисол учун, синалувчи барча тўғри жавобларни танласа, у 1 балл олади, қолган барча ҳолатларда эса - 0 балл.

Тўғри жавобни танлаш билан бажариладиган топшириқларда натижаларни ҳисоблашда одатда дихотомик баҳолаш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Синалувчи топшириқни тўғри бажаргани учун 1 балл олади ва нотўғри жавоб ёки ўтказиб юборгани учун - 0 балл.

Топшириқларни ишлаб чиқиши жараёнида алоҳида талаблар топшириқ шакли учун беихтиёр бузилади. Одатда, бунинг сабаби, ишлаб чиқарувчининг бутун диққат-эътибори шакл эмас, балки мазмунга сингдирилганлигидир. Алоҳида талабларнинг бузилиши, тест топшириқларини бажариш жараёнида тажрибали муаллифлар учун ҳам бир қатор ўзига хос камчиликларни келтириб чиқаради.

Кўйидагилар кенг тарқалган тест топшириқларидаги камчиликларни ўз ичига олади:

- тест топшириқларини шакллантиришда тўғри жавобларга олиб келувчи мантиқий тузилишнинг тўғри эмаслиги;
- тестларда жавобларнинг жуда узунлиги топшириқ шаклининг пропорционал бузилишига олиб келиши;
- тест шаклида тақдим этилган ортиқча сўзлар ёки тестда синовга мос бўлмаган контент натижасида талабнинг бузилиши;
- турли асосларга кўра жавобларни танлаш;
- теста топшириқларини ишлаб чиқувчилари томонидан нотўғри ҳисоблашлар натижасида топшириқларни бажармасдан ҳам тўғри жавобларни топишга тахмин қилиш имкони.

Мисол учун, 11-топшириқ қониқарсиз тузилган деб ҳисоблаш мумкин, чунки унда асосий қисм қисқа, тўғри жавоб узун бўлиб, тест тузувчи томонидан очиқдан-очиқ ўринлари ўзгартириб берилмоқда. Агар иккинчи ўринда турган “В” вариантда турган жавобнинг олдига “капитал айланмаси” таърифини қўйсак, жавоб бир ёки бир неча сўзлардан иборат бўлади.

11-Топшириқ КАПИТАЛ АЙЛАНМАСИ, БУ -

- A. Пул капиталнинг доимий ва изчил ҳаракатланиши
- B. Капиталнинг бир функционал шаклидан иккинчисига кетма-кет алмасиниши
- C. Олдинги қийматнинг қайтиши
- D. Товар капиталининг ишлаши

Навбатдаги 12-топшириқда агар муаллифнининг мазмун томонидан камчиликлари кўринса, берилган жавоблар муваффақиятсиз шакллантирилганлигини қўрамиз. Агар дастлабки учта жавоб монополистнинг ишлаб чиқариш ҳажмини ва улар ўртасидаги рақобатни солиштирса, тўртинчиси объектлар ўртасидаги муносабатларни ўрнатиш мақсадига қаратилган.

12-Топшириқ

МОНОПОЛИСТНИНГ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ҲАЖМИ МУКАММАЛ РАҶОБАТГА ҚАРАГАНДА ҚАНЧА ЎҚОРИ БЎЛАДИ?

- A. Кўпроқ
- B. Камроқ
- C. Ҳудди шунаقا
- D. Бозор шароитларига

13-топшириқ мазмун ва мантиқ нуқтаи назаридан нотўғри, бу ерда жавобларнинг саккизта параметридан фақат 5 таси ишлатилмоқда, 1-, 2- ва 8-дан фойдаланилмаган.

13-Топшириқ

ҚАЙСИ ИККИ ПАРАМЕТР МАМЛАКАТЛАР МАДАНИЯТИ ЎРТАСИДАГИ ФАРҚНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ УЧУН ИШЛАТИЛМАЙДИ ?

1. Инсон ва атроф-муҳит ўртасидаги муносабатлар
2. Вақт ўлчови
3. Одамлар табиати
4. Мулоқот шакли
5. Фаолият рейтинги
6. Ахборот эркинлигига кириш
7. Одамларнинг алоқаси
8. Жойга эгалик қилиш муносабати

Жавоб вариантлари:

- A. Тўртинчи ва олтинчи
- B. Учинчи ва олтинчи
- C. Учинчи ва бешинчи
- D. Тўртинчи ва еттинчи

Навбатдаги топшириқда дистракторларни танлаш натижасини самарасиз дейиши мүмкін, сабаби, бу ерда үзиге тортувчи уюшма учинчи нотұғри жавобни танлашга ёрдам беради.

14-Топшириқ

"ОЧИҚ ТИЗИМ" ТУШУНЧАСИ ҚАЙСИ ТАРКИБГА КИРАДИ ?

А. Таңқи мұхиттің үзгаришларга сезиларлық рөлінде жавоб беради ва уларға күра үзгәради.

В. Таңқи мұхитдан барча янги тенденцияларни англайды ва уларни үз фаолиятида қўллайды.

С. Эгаси томонидан талаб қилинадиган ҳар қандай янгиликтер учун очик.

Д. Рақобатчиларнинг хатти-харакатларига сезгир даражада жавоб беради ва бошқарув вазифаларини ҳал қилиш учун энг самарали принципларни англайды.

3. Жавоблари тузиладиган топшириқлар

Жавоблари тузиладиган топшириқларда (шунингдек, улар очик тестлар ёки тўлдириладиган тестлар деб ҳам аталади) тайёр жавоблари берилмайди яъни эҳтимолий жавоб варианtlари кўрсатилмаган тест топшириғи бўлиб, синалувчига мустақил роғищда тўғри жавоб вариантини топиш таклиф этилади. Жавоблари тузиладиган топшириқлар икки турдан иборат бўлиб, улардан бири синалувчининг тақдим этган аниқ жавоблари мазмуни ва шакли билан қатъий тартибга солинган бўлиши керак. Жавоблари тузиладиган топшириқнинг иккинчи турида - эркин жавоблари синалувчи томонидан саволларга батағсил жавоблар тузилади ва тушунтиришлар билан комплекс ечимларни үз ичига олади, микро иншо (эссе) ва бошқалар бажарилади.

Мазкур топшириқларни ечиш ўқувчилар учун нисбатан қийин кечади, чунки улар тахминни мутлақо рад этадилар. Дарҳақиқат, тест синовига таклиф қилинганлар учун тўғри жавобни танлаш жавобни шакллантириш (тузиш)га қараганда осондир, сабаби, мазкур жараёнда синалувчи баъзида билимга эмас, сезига ҳам таяниб қолади. Аммо бу ҳамма учун бўлмас-да, тест синовига ишонмайдиган ўқитувчилар, айниқса үз иш фаолиятларида анъанавий назорат воситаларидан фойдаланишга одатланганлар учун үзига хос хусусиятдир.

Биринчи турдаги топшириқларда жавоб одатда қисқа бўлади: сўз, рақам, формула, белги ва бошқалар. Ўрнатилган тартибга кўра топшириқни бажариш учун онгли роғищда саволга жавоб шакллантирилади, кейин жавоб тарақисида чизик ўрнига аниқ ва қисқа калит сўзи, белги ёки рақам ёзилади. Вазифада тўғри жавоб аниқ бажарилиши талаб этилганлиги туфайли, натижаларни текшириш тузилган жавобларга асосланган ҳолда текширилади ва у компьютерлаштирилган шаклга ўтказилади, сўнгра эксперталар томонидан барча талабаларнинг нотұғри жавоблари қайта кўриб чиқилади. Топшириқ жавоби талабалар томонидан келтирилган чизик ўрнига ёки маҳсус шаклда ёзиш орқали шакллантирилади.

Масалан: *Түгри жавобни ёзинг.*

1-Топшириқ

10 гр. МЕТАН ГАЗИ ЁНГАНДА ҚАНЧА КИСЛОРОД САРФ БҮЛДИ (СОННИ ЎНДАН БИР АНИҚЛИККАЧА ЁЗИНГ) _____

2-Топшириқ

БИРИНЧИ СУНЬЙИ КАУЧУКНИНГ АСОСЧИСИ КИМ _____

Жавоблари тузиладиган топшириқларни бажаришда баъзида ҳар хил даражада қисман тўғри ва тўғри жавоблар ҳам мавжуд бўлиб қолади. Синалувчи белгиланган чизиқ жойига жавоб ёзишда, тўғри белгиланган жавоб ўрнига сўзнинг синонимини келтириши ёки ўтказиб юборилган формуладаги элементларнинг тартибини ўзгартириши мумкин, бу эса автоматлаштирилган тест натижаларини чиқариш ва баҳолашни сезиларли даражада қийинлашишига олиб келади. Шу сабабли, текшириш жараёнида қисман тўғри жавоблар учун қўшимча баҳолаш келишувини ишлаб чиқишга тўғри келади.

Жавоблари тузладиган топшириқлар қўйидаги бир қатор талабларга жавоб берниши керак:

- ҳар бир топшириқ жавоби учун келтирилган чизиқ ва нуқталар ўрнида фақат битта сўз, белги ва ҳ.к. қўйилиши тавсия этилади;
- чизиқлар ўрнига асосий калит сўз элементлари қўйилади, бу билими назорат қилинадиган синалувчи учун энг муҳим ҳисобланади;
- барча тест топшириқ жавоблари учун келтирилган чизиқлар бир хил узунликда бўлиши мақсадга мувофик;
- жавоб учун жой ўрни топшириқнинг сўнгида ёки имкон қадар охирида ёзилиши белгиланади;
- имкон қадар чизиқдан кейин ўлчов бирлиги кўрсатилиши сўралади;
- топшириқнинг матни жуда оддий синтактик тузилишга эга бўлиши, топшириқни тўғри бажариш учун зарурӣ ва энг кам маълумотни ўз ичига олиши керак.

Иккинчи тур эркин тест топшириқларига тузиладиган жавобларни келтиришда, уларнинг мазмун ва шакли бўйича ҳеч қандай чекловлар мавжуд эмас. Берилган вақт давомида тест топширувчи жавоб учун эркин ҳолда маҳсус шаклга нима хоҳласа, шуни ёзиши мумкин. Шубҳасиз, бундай бажариш шартлари кўп жиҳатдан анъанавий ёзма ишларга яқин, шунинг учун эркин тест топшириқларига тузиладиган жавоблар ўқитувчиларнинг кўпчилиги томонидан ижобий қабул қилинади. Мазмун-моҳияти ва турлилиги жиҳатидан улар қизиқарли ҳисобланади.

Иккинчи тур топшириқларини ишлаб чиқиш анчагина осон кўриниши мумкин. Дарҳақиқат, вазифани белгилаш қийин эмас, балки уни амалга ошириш, натижаларини баҳолаш учун стандартлаштирилган қоидалар билан бирга, мақбул

жавоб стандартини таклиф қилиш анча мушкул. Масалан, тарих фанидан топшириқнинг очиқ жавобини шакллантирилиши етарлича қисқа.

3-Топшириқ

XIX АСРДА РОССИЯ ТАШҚИ СИЁСАТИДА ҲАЛ ҚИЛУВЧИ АСОСИЙ ВАЗИФАЛАР НИМАДАН ИБОРАТ? (КАМИДА ИККИТА ВАЗИФАНИ КҮРСАТИНГ). ХИВАДАГИ УРУШЛАР, КАМПАНИЯЛАР ВА ЭКСПЕДИЦИЯЛАР МИСОЛЛАРИДА КЕЛТИРИНГ(КАМИДА УЧТА МИСОЛ).

Бироқ, топшириқни синовга қўйиш учун унинг муаллифи текшириш тартибини стандартлаштириши зарур, бу жуда катта ҳажмдаги иш бўлиб, баъзида уни амалга оширишда, юзага келувчи ноаниқ натижалар сабабли, жуда кўп эътиrozларга сабаб бўлади.

Табиий фанлар эталони бўйича баҳолаш мезонларини тақдим этиш жуда осон амалга ошади.

Кенгайтирилган жавоблар билан ишларни текшириш мутахассислар томонидан стандартлаштирилган йўриқномага мувофиқ амалга оширилади. Унинг хусусиятлари ва сифат кўрсаткичларини тавсифлаб келтирилган мисол каби мақбул жавоб стандартини ўз ичига олади.

Очиқ тест саволлари асосида тузилган топшириқларни текшириш ўқитувчидан кўп меҳнат талаб қиласди. Бу вақтда политомик баҳолаш учун кўплаб турли даражадаги жавоблар таҳлил қилинади, этalon билан солиширилади. Баъзан текширишни компьютер дастурларрида ишлаб чиқиш йўли билан стандартлаштиришга ҳаракат қилинади [3].

Жавоблари эркин тузиладиган топшириқларни ишлаб чиқиш учун асосий тавсиялар қўйидагилардан иборат:

- эркин жавоблари билан тузиладиган топшириқлар асосан билим кўникмаларини баҳолаш учун мўлжалланганлиги боис, улар оддий шакллардан фойдаланиш мумкин бўлмаган ҳолларда ишлаб чиқилиши керак;
- жавоб узунлиги ва мураккаблиги (муаммони ҳал қилиш, уни асослаш ва ҳоказо кабилар, жавоб матнининг бир неча саҳифадалиги) кенг доирада бўлиши мумкин. Йўриқномада ҳар бир топшириқ учун жавобнинг максимал узунлиги бўйича чекловларни киритиш мақсадга мувофиқ;
- топшириқни шакллантиришда жараён муаммони ҳал қилиш, амалга ошириш ва баҳолаш мезонларини ўз ичига олиши керак;
- ҳар бир топшириқни бажариш учун белгиланган вақт доирасида батафсил жавобни шакллантириб, уни ёзишни амалга ошириш керак.

Жавоби эркин тузиладиган топшириқларда баҳолаш натижаларининг ишончлилигини ошириш мумкин, агарда:

- юқоридаги келтирилган тавсиялар асосида топшириқ тузишни тўғри ташкил этиш натижасида;

- текширишда учтадан кўп бўлмаган стандартлаштирилган баҳолаш кетегориялари (0, 1, 2) тизимидан фойдаланиш;
- топшириқларни текширишда стандартлаштирилган баҳолаш мезонларини кўллаш бўйича эксперtlарни ўқитиш;
- ҳар бир топшириқни текшириш учун камида иккита экспертни жалб этиш ва уларнинг баҳолашида 2 ва ундан ортиқ балл фарқ қилса, учинчи мутахассисни таклиф қилиш;
- анонимлик принципи нуқтаи назаридан бетараф экспертлар фикридан фойдаланиш;
- кейинги топшириққа баҳо қўйишида аввал қўйилган баҳо маълумотларига эътибор бермаслик.

Топшириқлардаги иншо (эссе) тури қўйидагиларга мувофиқ баҳоланиши мумкин:

- талабаларнинг жавобини оддий баҳолаш шаклида мезонлар мазмунга қараб тузилади;
- жавоблар мазмuni, матн сифатини унинг тўлиқлиги ва услуби ёки топшириқни ишлаб чиқувчи учун муҳим бўлган бошқа омилларни ҳисобга олган муракқаб баҳолаш шакли;

Ҳар қандай баҳолаш тизимида эркин тарзда тузилган жавобга эга топшириқлар политомик баҳолашни талаб қиласди, бу баъзан истаман ҳолда синов баҳосининг ошиб кетишини юзага келтиради. Бундай ошиб кетишининг олдини олиш ва субъектив компонентнинг таъсирини камайтириш учун баҳолаш мезонлари сони, одатда, политомик баҳолаш чегараланади, масалан, 0 дан 3 га ёки 0 дан 2 гача.

4. Топшириқларда мувофиқликни тамиллаш

Мувофиқликни таъминлаш топшириғи ўзига хос қўринишга эга бўлиб, синаувчи томонидан йўриқномага риоя қилган ҳолда, икки гурух элементларидан мувофиқликни таъминлаш таклиф этилади. Чап томонда одатда муаммони ўз ичига олган элемент белгилари, ўнг томонда эса танланадиган элементлар келтирилади.

